

M. SAFAROVNING “OTA HUZURIDA” QISSASIDA OBRAZLAR POETIKASI

Feruza Hafizova

Termiz davlat univesiteti doktoranti

E-mail: fhafizova730@gmail.com Orcid:<https://orcid.org/0009-0009-9786-6233>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22627575>

Annotatsiya: Maqolada zamondosh o‘zbek yozuvchisi Mengziyo Safarovning “Ota huzurida” qissasi misolida obrazlar tizimining badiiy–psixologik tabiati tahlil qilingan. Boyqobil bobo, Sattor Polvonov va Sattorning otasi (Polvon) obrazlari orqali gunoh va tavba, xotira va haqiqat, yo‘qotish va sog‘inch mavzulari yangi ilmiy yondashuv asosida yoritilgan. Uch obraz o‘rtasidagi ichki aloqadorlik qiyosiy–psixologik tahlil qilinib, ular yaxlit badiiy konsepsiya — insonning o‘tmish bilan yarashishi va qalban poklanishi haqidagi umuminsoniy g‘oyani ifodalovchi tizim sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: qissa, obraz, badiiy konsepsiya, xarakter, vijdon, xotira, psixologizm.

Аннотация: В статье на примере повести современного узбекского писателя Мензиё Сафарова «Ота хузурида» («В присутствии отца») анализируется художественно–психологическая природа системы образов. На основе образов Бойқобил–бобо, Саттора Полвонова и отца Саттора (Полвона) в рамках нового научного подхода раскрываются темы греха и покаяния, памяти и истины, утраты и тоски. Проведён сравнительно–психологический анализ внутренней взаимосвязи трёх образов, обосновано, что они образуют целостную художественную концепцию, выражающую общечеловеческую идею примирения человека с прошлым и духовного очищения.

Ключевые слова: повесть, образ, художественная концепция, характер, совесть, память, психологизм.

Abstract: This article analyzes the artistic and psychological nature of the system of characters in the novella «Ota huzurida» («In the Presence of the Father») by the contemporary Uzbek writer Mengziyo Safarov. Through the characters of Boyqobil–bobo, Sattor Polvonov, and Sattor's father (Polvon), the article, based on a new scholarly approach, examines the themes of sin and repentance, memory and truth, loss and longing. A comparative–psychological analysis of the inner connection among the three characters is carried out, demonstrating that together they form an integral artistic concept expressing the universal idea of a person's reconciliation with the past and spiritual purification.

Keywords: novella, character, artistic concept, personality, conscience, memory, psychologism.

Qissa poetikasida bosh qahramon obrazining shakllanishi va takomillashuvi asarning g‘oyaviy–badiiy mazmunini yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki obraz orqali muallifning voqelikka munosabati, estetik ideali va badiiy konsepsiyasi namoyon bo‘ladi. Bu borada olim B. Sarimsoqovning fikricha, badiiy obraz ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g‘oyasi orqali sintezlashgan voqelikning inson ruhiyati muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg‘u va kechinmalar timsolida betakror tarzda umumlashtirilgan, estetik qimmatga molik in‘ikosidir [1]. Darhaqiqat, badiiy obraz voqelikning oddiy nusxasi emas, balki muallifning estetik tafakkuri va hayotiy tajribasi asosida qayta ishlangan badiiy umumlashma sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli qissa janrida qahramon xarakterining tadrijiy rivoji, uning ichki kechinmalari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari orqali asarning g‘oyaviy mohiyati hamda badiiy konsepsiyasi ochib beriladi.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Mengziyo Safarov zamondosh ijodkorlar orasida munosib mavqega ega adiblardan biridir. Uning ijodida inson va tabiat munosabatlari masalasi turli rakurslarda hamda keng qamrovda badiiy talqin etilgan. Mazkur tezisda yozuvchining «Ota huzurida» qissasi misolida obrazlar tizimi va ularning badiiy–psixologik tabiati tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologik jihatdan qiyosiy–tipologik va psixologik tahlil usullariga tayanadi. Qissadagi har bir obraz alohida tarkibiy qism sifatida emas, balki bir–biri bilan uzviy bog‘liq badiiy butunlikning organik bo‘lagi sifatida o‘rganiladi. Bunday yondashuv obrazlar o‘rtasidagi ichki aloqadorlikni, ularning bir–birini to‘ldiruvchi vazifasini, shuningdek asar kompozitsiyasida tutgan o‘rnini yanada teranroq ochib berish imkonini yaratadi. Qissaning nisbatan tor hajmi, aksincha, obrazlar tabiatini yanada ixcham va ta’sirchan tarzda ifodalashga xizmat qilgani, muallifning har bir detalni maqsadli tanlagani tahlil jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

M. Safarovning «Ota huzurida» qissasi kichik hajmiga qaramay, inson qalbining eng chuqur qatlamlarini gunoh va tavba, yo‘qotish va sog‘inch, xotira va haqiqat orasidagi kurashni ochib beruvchi

murakkab ruhiy manzarani gavdalanitiradi. Asar markazida ikki taqdir o‘zaro chatishib ketadi: yillar davomida vijdon azobida yashagan Boyqobil bobo va bolaligida otasidan judo bo‘lib, keyinchalik maktabning ilmiy mudiri lavozimigacha yetishgan Sattor Polvonov. Muallif ushbu ikki obraz vositasida insonning o‘z gunohi bilan yuzlashuvi naqadar og‘ir, ammo shu bilan birga naqadar zarur ekanini, shuningdek, yo‘qotilgan ota siymosining farzand qalbida qanday saqlanib qolishini nozik psixologik bo‘yoqlar bilan tasvirlaydi.

Boyqobil bobo qissadagi eng fojiali, shu bilan birga eng insoniy obrazlardan biri sifatida gavdalanadi. Qahramon ko‘p yillar davomida og‘ir sirni – Sattorning otasini o‘z qo‘li bilan halok qilganini ichida saqlab yashagan. O‘limi yaqinlashganini his qilgach, u bu og‘ir yukni yolg‘iz olib ketishga qodir emasligini anglaydi va nihoyat, titroq ovozda «bu gunohini o‘zi bilan go‘rga olib ketishni istamasligini» iqrar bo‘ladi. Bobo o‘z qilmishini oqlamaydi, aksincha, ochiqchasiga tan oladi. Bu insonning o‘lim oldida haqiqat bilan yuzlashishga majbur bo‘lgan, ammo aynan shu jarayon orqali qalban yengillashgan qahramon obrazidir.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, Boyqobil bobo Sattordan bevosita kechirim ham so‘ramaydi, u faqat o‘z gunohini bo‘yniga olganini bildirib, o‘zini Sattorning hukmiga, xoh xun olishi, xoh kechirishi mumkinligini bildirib topshiradi. Boyqobilning bu holati kechirim so‘rashdan ham og‘irroq mavqega ega, chunki u o‘zini oqlamay, jazoni ham qabul qilishga tayyor turadi. Shu bilan birga, uning yillar davomida Sattorni «shundoq odam» bo‘lib yetishishiga o‘z hissasini qo‘shgani, ya‘ni yashirin tarzda unga homiylik qilib kelgani, obrazga ziddiyatli, ammo teran inson tabiatini yuklaydi: gunohkor bo‘lsa-da, u vijdonli va mas‘uliyatli inson sifatida talqin etiladi. Aynan mana shu ichki ziddiyat – gunoh va mas‘uliyat, o‘zini ayblash va boshqasiga g‘amxo‘rlik qilish obrazni sxematik salbiy qahramondan farqli, murakkab psixologik siymoga aylantiradi.

Badiiy, kompozitsion nuqtai nazardan Boyqobil bobo obrazi qissaning «tan olish» arxetipini gavdalanitiradi. Uning e‘tirofi asar syujetining burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi: aynan shu lahzadan boshlab boshqa qahramonlarning ichki dunyosi, xotiralar va munosabatlari yangicha ma‘no kasb eta boshlaydi. Muallif bu obraz orqali gunohning faqat jazolanishi emas, balki uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan sekin–astalik bilan amalga oshirilgan ma‘naviy harakat yashirin xayr-ehson va g‘amxo‘rlik orqali qisman «yuvilishi» mumkinligi haqidagi falsafiy fikrni ilgari suradi. Shu tariqa Boyqobil bobo obrazi o‘quvchida bir vaqtning o‘zida qoralash va hamdardlik hissini uyg‘otadigan, milliy adabiyotimizga xos tavba–tazarru an‘analarini o‘zida mujassam etgan murakkab xarakter sifatida shakllanadi.

Sattor Polvonov obrazi qissaning ruhiy o‘zagini tashkil etadi. U dastlab bobodan kelayotgan xabarni tushunmay, hayajon bilan yuzlanadi, go‘yo bu gaplarni tushida eshitayotgandek holatga tushadi. Ammo asar davomida u his-tuyg‘ularini boshqarishga qodir, dono va bosiq inson sifatida namoyon bo‘ladi, hatto shok holatida ham o‘zini tutib, boboga nega bu haqiqatni ilgariroq aytmaganini so‘raydi. Ushbu savolda na g‘azab, na o‘ch-alam bor: faqat achinish va tushunishga intilish mujassam.

Sattor Polvonov obrazining yana bir muhim qirrasini uning ijtimoiy mavqei bilan ichki ruhiy holati o‘rtasidagi nomutanosiblikdadir. Maktabning ilmiy mudiri sifatida jamiyatda obro‘- e‘tibor qozongan, o‘ziga ishonchli va bilimdon inson bo‘lib tanilgan qahramon, aslida hamon bolalikdagi yetim qolgan bola qiyofasini o‘z ichida saqlab yuradi. Bu ikkilanish tashqi barqarorlik va ichki yaraning davom etishi obrazga psixologik hajm bag‘ishlaydi. Sattorning boboga bergan savoli, ya‘ni haqiqatni nega ilgariroq aytmagani haqidagi murojaati, aslida o‘tmishga emas, balki o‘zining kechagi «ma‘lumotsizlik» holatiga qaratilgan ichki savol sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan Sattor obrazi kechirim va tushunish, og‘riq va poklanish o‘rtasidagi murakkab psixologik yo‘lni bosib o‘tuvchi zamonaviy qahramon namunasi sifatida qissaga yangicha nafas baxsh etadi.

Qissada bevosita ishtirok etmasa-da, Sattorning otasi – Polvon asarning eng kuchli obrazlaridan biriga aylanadi, chunki u faqat xotira va tasavvur vositasida gavdalanadi. Bolalik xotiralarida u mard, mehribon va tajribali ovchi sifatida namoyon bo‘ladi: ov paytida qo‘rqib ketgan o‘g‘liga dalda berib, uni «sher bola» deb atagani, qo‘rqmaslikka chorlagani tasvirlangan. Uning nutqida hayotiy falsafa ham mujassam: shamol tinganda buni yaxshi alomat sifatida talqin qilishi orqali u o‘g‘liga sabr va matonatni o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu uch obraz birgalikda insonning o‘tmish bilan yarashishi, haqiqatni qabul qilishi va shu orqali qalban tinchlanishi haqidagi umuminsoniy g‘oyani ifodalaydi. M. Safarov qissa poetikasida obrazlar tizimini psixologik teranlik, xarakterlar tadriji va falsafiy umumlashma asosida qurar ekan, bu bilan zamonaviy o‘zbek qissachiligida inson ruhiyatini badiiy tadqiq etishning yangi bir bosqichini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. -Т.: 2004 – Б.22.
2. Сафаров М. Айришох. — Тошкент: 2008. – 286 бет.
3. Жўракулов У. Худудсиз жилва – Т.:Фан, 2006 –Б.161.
4. Холмирзаев Ш. Муаммолар муаммоси – одам // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1986 йил. – 26 дек.
5. Сафаров М. Она тупроқ қўшиғи – Т: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 225 бет.